



OBLIGATION OF ADULT ABLE-BODIED CHILDREN TO PROVIDE MATERIALLY FOR PARENTS: CONSTITUTIONAL AND FAMILY LAW ANALYSIS

Usmonova Makhliya Sobirjanovna

Associate Professor of the Department of Legal Education,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Fergana State University
usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 888 6309328

Abstract

Any legal norm is formed primarily by the customs and moral rules formed in society. The obligation to provide materially for the parents has long been recognized as a moral and social duty imposed on the child, regardless of whether it is enshrined in law. Therefore, the relationship between parent and child is largely based on voluntary mutual aid and support.

Introduction

VOYAGA YETGAN MEHNATGA LAYOQATLI FARZANDLARNING OTA-ONANI MODDIY TA'MINLASH MAJBURIYATI: KONSTITUTSIYAVIY VA OILA-HUQUQIY TAHLIL

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Huquq ta'limi kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 888 6309328

Har qanday huquq normasi, avvalo, jamiyatda shakllangan urf-odatlar va axloqiy qoidalar ta'sirida vujudga keladi. Ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati ham qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilganidan qat'i nazar, farzand zimmasiga yuklatilgan axloqiy va ijtimoiy burch sifatida qadimdan e'tirof etib kelinadi. Shu bois ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, asosan, ixtiyoriy o'zaro yordam va ko'makka asoslanadi.



Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, barcha farzandlar ham ota-onaga nisbatan o'z majburiyatlarini ixtiyoriy va to'liq bajara olmaydi. Bunday holatlarda ota-onaning moddiy ta'minotga bo'lgan huquqi davlat tomonidan majburiy huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Jumladan, ota-ona sud tartibida voyaga yetgan farzandlaridan moddiy ta'minot undirish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi ota-onani ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solibgina qolmay, ota-onaning sog'lig'i yoki boshqa uzrli holatlar sababli yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlarni qoplash masalasini ham huquqiy jihatdan belgilaydi. Xususan, Oila kodeksining 111-moddasiga muvofiq, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar ota-onaning kasalligi yoki boshqa uzrli sabablar tufayli qilinadigan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart. Ushbu norma oila qonunchiligidagi muhim yangiliklardan biri bo'lib, qo'shimcha xarajatlarni qoplash miqdorini belgilashda har bir farzandning moddiy ahvoli inobatga olinishi lozimligini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, qonunchilik ayrim hollarda farzandlarni ota-onani moddiy ta'minlash majburiyatidan ozod etish imkoniyatini ham belgilaydi. Oila kodeksining 113-moddasiga ko'ra, agar sud tomonidan ota-onaning ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi aniqlansa, farzandlar mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj ota-onaga nisbatan ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinishi mumkin. Mazkur holatlar ota-onaning voyaga yetmagan bolaning sog'lig'i, axloqiy tarbiyasi, jismoniy va ma'naviy rivoji, ta'lim olishi hamda uni mehnatga tayyorlash borasidagi majburiyatlarini bajarmaganligi, shuningdek, bolani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlamaganligi yoki aliment to'lashdan qasddan bo'yin tovlagan aybli xatti-harakatlarida ifodalanadi.

Ahamiyatli jihati shundaki, farzandlarni ota-onasiga nisbatan aliment to'lash majburiyatidan ozod qilish uchun ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi yoki ushbu huquqlari cheklanganligi shart emas. Biroq mazkur holatlar sud tomonidan har tomonlama, xolis va puxta o'rganilgan dalillar asosida aniqlanishi lozim, chunki ota-onaning ota-onalik majburiyatlarini bajarmasligi ayrim hollarda o'ziga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv sabablar bilan ham izohlanishi mumkin.

Muallif voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onani moddiy ta'minlash majburiyatini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasi mazmunini tahlil qilar ekan, ushbu normani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi 80-moddasi bilan uyg'unlashtirish zarurligi



to'g'risida xulosaga keladi. Chunki amaldagi 109-modda mazmunan Konstitutsiyaning avvalgi tahriridagi 66-moddaga mos holda saqlanib qolgan bo'lib, yangi konstitutsiyaviy yondashuvlar yetarli darajada inobatga olinmagan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 80-moddasida ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati farzandlarning muayyan huquqiy holati bilan bog'lanib, ushbu majburiyatni yuzaga keltiruvchi shartlar aniq va tizimli tarzda belgilangan. Mazkur norma mazmunidan kelib chiqib, ota-onani ta'minlash majburiyati faqat bir vaqtning o'zida voyaga yetgan va mehnatga layoqatli bo'lgan farzandlarga nisbatan yuzaga kelishi lozimligi anglashiladi.

Biroq amaldagi Oila kodeksining 109-moddasida qo'llanilgan "voyaga yetgan, mehnatga layoqatli" iborasidagi vergul huquqiy mazmun jihatidan muayyan noaniqlikni keltirib chiqaradi. Ushbu grammatik konstruktsiya normani "va" emas, balki "yoki" mazmunida talqin qilish imkonini beradi. Natijada ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati farzandning faqat voyaga yetganligi yoki faqat mehnatga layoqatli ekanligi bilan bog'lab qo'yilishi ehtimoli yuzaga keladi.

Bunday talqin esa Konstitutsiyaning yangi tahriridagi normalar ruhiga zid bo'lib, huquqni qo'llash amaliyotida ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, mehnat qonunchiligida 16 yoshdan boshlab mehnatga layoqatlilik tan olinishi inobatga olinsa, mazkur normani keng talqin qilish orqali voyaga yetmagan shaxs zimmasiga ham ota-onaga nisbatan aliment majburiyatini yuklash xavfi vujudga keladi.

Shu munosabat bilan, Oila kodeksining 109-moddasini konstitutsiyaviy normalarga mos ravishda aniqlashtirish, undagi shartlarning birgalikda qo'llanilishini aniq ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, mazkur modda matnida "voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar" iborasini "voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar" shaklida qayta tahrirlash huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki milliy va xalqaro huquq normalariga ko'ra, "bola" tushunchasi voyaga yetmagan shaxsni anglatadi va uni "voyaga yetgan" iborasi bilan yonma-yon qo'llash mantiqiy va huquqiy tafovutni keltirib chiqaradi.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi oila va konstitutsiyaviy huquq normalarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash, huquqiy aniqlik va qonuniylik prinsiplari mustahkamlanishiga, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.